ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Serpentinit mineralining infraqizil (FTIR) spektroskopiya va termogravimetrik tahlili, uni karam o`simligi tadqiqioti natijalariga ko`ra tuproq unumdorligiga ta`sirini o`rganish

Boboqulova Dilso'z Zokir qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti magistranti
Shodiqulov Jo'rabek Mehriqulovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
Doniyarov Kamoliddin Alovuddin o'g'li
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Serpentinit mineralining infraqizil (FTIR) spektroskopiya va termogravimetrik tahlilini o`rganish, mineral asosida tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlarini oshirishga qaratilgan. Serpentinit ph darajasi 5,5 bo`lgan(kilotali) tuproqlarga nisbatan ijobiy ta`sir ko`rsatishi oldingi tadqiqotlardan ma`lum. Tuproq tarkibidagi og`ir metallar o`simliklar uchun ekologik xavf tug`dirishi mumkin. Serpentinit tarkibida (Ni, Cr) og`ir metallar mavjud va ularni o`zlashtiraoladigan o`simliklar orqali tadqiqot o`tkazish tuproqni og`ir metallardan halos qilish imkonini beradi.
**Kalit so`zlar**:Tuproq,serpentinit,og`ir metallar,karam,biomassa,Cr,Co,Ni,Mg

Adabiyotlar sharhi. Serpentinit minerali (kimyoviy formulasi ($Mg_3Si_2O_5(OH)_4$)) tarkibidagi magneziy silikatlar mavjud bo`lib, tuproqning fizik, kimyoviy va biologik jihatdan tarkibini o`zgarishiga olib keladi. Tarkibida Mg ionining ko`pligi tuproqni ishqoriyligini oshirishi mumkin shu bilan birga Ca va Mg nisbatini buzilishiga sabab bo`lib, o`simliklar ozuqa elementlarini o`zlashtirishiga to`sqinlik qiladi, shuni ham ta`kidlash joizki serpentinit minerali kislotali (ph-5.5) tuproqlarda unum beradi. Ammo yana shu ma`lum bo`ldiki, serpentinit mavjud tuproqlarning zichligi oshib, suv balansi kamayishi va o`simlik ildiz otishi qiyinlashadi. Tuproq zichligini oldini olish maqsadida tuproqga serpentinit bilan birgalikda mineral moddalar qatorida Gips ($CaSO_4$) yoki ohak ($CaCO_3$) organik moddalar qatorida esa chirik go'ng (kompost)**,** biogumus**,** torf kabi moddalar orqali Mg ni siqib chiqarish va og`ir metal ionlarini bog`lab, zichlikni 10-15% gacha kamaytirishga yordam beradi. Serpentinit tarkibidagi silikat CO_2 bilan reaksiyaga kirishib $MgCO_3$ ni hosil qiladi bu esa barqaror karbon saqlashga va geologik tuzilmalar orqali CO_2 ni saqlashga nisbatan xavfsizdir. Serpentinit tarkibidagi elementlarni o`simliklar qulay o`zlashtiraoladigan shaklga keltirishda tuproq mikroflorasining (Alyssum murale, Brassicaceae, Pseudomonas, Bacillus, Arthrobacter) ya`ni mikroorganizmlarni o`rni beqiyos. Ularning ba`zilari mineral tarkibidagi og`ir metallarni o`za tanasida saqlash qobilyatiga ega, askari mineral tarkibidagi elementlarni o`simlik qulay o`zlashtiraoladigan shaklga aylantiradi. Mineral tarkibida og`ir metallarni mavjudligi o`simliklar hayotiga salbiy ta`sir ko`rsatmasdan qolmaydi albatta. Ammo o`simliklarni og`ir metallarga chidamliligini oshirishda va og`ir metallarga chidamli, yangi o`simlik navlarini yaratishga imkon beradi. Serpentinit mineralini tuproqga berish orqali, og`ir metallarni yutish qobiliyatiga ega o`simliklar yordamida mineral tarkibidagi Co va Ni elementlarini yig`ib olish va sanoatda qo`llash imkonini beradi. Serpentinitli tuproqlar yuqorida ta`kidlangani kabi og`ir metallarga boy va bu tuproqlarda giperakkumulyator o'simliklar va ekstremofil mikroorganizmlar uchun noyob yashash muhitidir.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY


VOLUME-5, ISSUE-5

Bundan tashqari mineraldan MgO ajratib olish orqali sanoat va texnologiyalashtirishda yuqori natijalarga erishish mumkin.Serpentinitni yuqori haroratda qizdirilganda magnezium oksidi(MgO) olish mumkin shu qatorda MgO orqali issiqlikka o`ta chidamli materiallar(metal ishlab chiqarishda, g`isht quyishda va sement ishlab chiqarishda) olishda ahamiyatlidir. Shu qatorda temir, po‘lat va alyuminiy kabi metallarni tozalashda faol qo`shimchadir.

Serpentinit minerali orqali tadqiqot o`tkazishda karam o‘simligining o‘sish darajasini, kimyoviy va biologik tarkibi, fiziologik holatining sezilarli darajada o`zgarishi va og‘ir metallarni o`zlashtirishi orqali javob reaksiyasi o`rganildi. Tadqiqot uchun karam o`simligidan foyudalanishdan maqsad Karamdoshlar oilasiga mansub o`simliklar og`ir metallarni yutish buyicha Respublikamizda yetishtiriladigan o`simliklar qatorida yuqori o`rinni egallaydi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlarning ekologik xavfsizliogi uchun muhimdir.

Karmana serpentinit materialining termogravimetrik tahlili

Serpentinit – asosan suvli silikat mineral bo`lganligi sababli dehidratatsiya (suv yo`qotilishi) bosqichlarini aniqlash yo`li orqali issiqlik ta`sirida o`z tarkibidagi kristall suvni yo`qotadi. Termik analizda bu suvni yo`qotish bosqichlarini aniq ko`rsatib berdi.



1.rasm.

Termik analizni tahlil qiladigan bo`lsak, TG (termogravimetrik) analizda (yashil chiziq) ma`lum harorat bo`yicha vazn yo`qotish bosqichlari yuzaga chiqgan;

1.Harorat 25.00-145.49^{0}C oralig`ida -1.05% da bu degani 0.86 mg odatdagi namlik (adsorbsiyalangan) yo`qotilgan.

2. Harorat 354.03 – 435.10°C oralig`ida -1.36% bu degani 1.12 mg organik moddalar parchalanishi yoki kam miqdorda strukturaviy suv yo`qolishi kuzatildi.

3.Harorat 560.05-819.42^{0}C oralig`ida -10.03% bu degani 8.25 mg vazn yo`qotish vujudga keldi. Bu asosiy jarayonlardan biri dehidroksillanish bo`lib, serpentinitda gidroksil guruhlar (strukturaviy suv) yo`qoladi.

4. Umumiy hisobda 25.00 – 854.05°C oralig‘ida umumiy vazn yo‘qotish: -12.57% (10.34 mg) ni tashkil qildi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5


1-jadval

		Endotermik cho`qqi	
DSC(Differensial Skanerlovchi Kalorimetriya) analiz (ko‘k chiziq)		Cho`qqi 1	Cho`qqi 2
	Temperatura	615.1 – 715.3°C	791.7 – 814.1°C
	Cho‘qqi qiymati	662.0°C	803.1°C
	Entalpiya	25.6260 J/g	4.1110 J/g
	Jarayon	Kuchli endotermik reaksiya bo‘lib, bu yerda dehidroksillanish reaksiyasi sodir bo‘ladi.	Bu bosqichda turli tarkibiy moddalarning parchalanishi yuz beradi.

Serpentinit materiallarining sanoatda qo‘llanishi uchun uning issiqlik ta’siriga qanday javob berishi o`rganib chiqildi. Serpentinit past haroratda adsorbsiyalangan suvni yo‘qotishi ma`lum bo`ldi. 600-700°C oralig`ida asosiy jarayon dehidroksillanish sodir boldi. Analiz davomida 12.57% vazn yo`qotilishi mineral tarkibida suv miqdorining ko`pligida dalolatdir. Differensial Skanerlovchi Kalorimetriya o`qida ikkita reaksiya sodir bo`ldi, kuchli, harorat 662°C, kuchsiz, harorat 803°C ekanligi ma`lum bo`ldi.

Karmana serpentinit materialining infraqizil (FTIR) spektroskopiya tahlil natijasi.

Infraqizil nurlanish orqali serpentinit mineralining, emissiya yoki aks ettirish orqali o‘lchash va tarkibidagi no`malum namunalarni aniqlash va tekshirish.



2-rasm.

Asosiy piklar va interpretatsiyasi:

1. 1100.682 cm^{-1} – Si–O tebranishi tarkibida silikatlar mavjudligidan dalolat.
2. 1063.371 cm^{-1} – Si–O–Si tebranishlari (fayllosilikatlar va erpentinite strukturasi uchun umumiy).
3. 1016.302 cm^{-1} – Boshqa Si–O tebranishi, qatlamli silikatlarga xos.
4. 673.035 cm^{-1} – Mg–O yoki OH guruhiga oid tebranish (serpentin minerallariga xos).
5. 611.383 cm^{-1} – OH deformatsion tebranishi.
6. 505.258 cm^{-1} – Metall-oksid bog‘lar (Mg–O, Fe–O).
7. 447.846 cm^{-1} – Past energiyali panjaraviy tebranishlar.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

FTIR spektri erpentinite minerali tarkibidagi moddalar uchun xos bo‘lgan tebranishlarni yuzaga chiqardi, silikat strukturasi, tarkibida OH va Mg bilan bog`liq tebranishlar ma`lum bo`di.Serpentinit minerali spektrdan shu narsa ma`lum bo`ldiki, kristallik xususiyati silikat va gidroksil guruhlariga ega ekanligi serpentinitga xosdir.

Tadqiqotning obyekti va metodlari: Tadqiqot uchun serpentinit minerali Karmana hududida joylashgan serpentinit konidan olindi va kukunsimon holatga keltirildi. Tajriba mineralning turli xil konsentratsiyasini tayyorlashdan boshlandi. 0%, 5%,10%, 15%,20%,25%,30% konsentratsiyaga ega (har biri ikkitadan) erpentinite minerali va har biri idishda 100 gr lik tuproqlar tayyorlandi. Karam urug`lari serpentinite va tuproq aralashmasiga ekildi va yetarlicha harorat, yorug`lik va namlik berildi. Karam odatda 5-10^{0}C haroratda 5-7 kunda unib chiqadi va 20-25^{o}C atrofida yaxshi rivojlanadi va barg yoyadi.

Tadqiqot jarayonida 9-10 kun oralig`ida urug`lar nish ura boshladi. 3-4 kunda bir marotaba sug`orildi va yetarlicha namlik, harorat va yorug`lik bilan ta`minlandi.

2-jadval

O'simlik kodi	Tajriba guruhi	Bo'yi (sm)	Barg soni	Biomassa (g)	Ni miqdori (mg/kg)	Cr miqdori (mg/kg)	Co miqdori (mg/kg)
K1	K1(0%)	27-28	17-19	1.9-2.0	0.30-0.35	0.02-0.1	0.02-0.03
K2	K2(0%)	28-30	18-19	2.0-2.1	0.34-0.36	0.03-0.1	0.03-0.03
K3	K3(5%)	28-31	18-20	1.5-1.9	0.85-1.75	0.6-1.0	0.6-0.15
K4	K4(5%)	30-31	19-21	1.6-1.8	0.87-1.77	0.7-1.1	0.7-0.15
K5	K5(10%)	35-36	20-22	1.9-2.0	1.7-3.5	1.2-2.0	0.3-1.2
K6	K6(10%)	35-37	20-21	2.0-2.2	1.7-3.5	1.1-2.1	0.4-1.4
K7	K7(15%)	38-40	24-25	2.2-2.3	2.55-5.25	1.8-3.0	0.45-1.8
K8	K8(15%)	39-41	25-27	2.7-2.8	2.57-5,20	1.7-2.9	0.45-1.9
K9	K9(20%)	40-43	25-28	2.8-2.9	3.4-7.0	2.1-3.0	1.8-2.4
K10	K10(20%)	41-46	26-30	2.7-3.0	3.5-6.8	2.0-2.9	1.8-2.5
K11	K11(25%)	35-37	18-20	2.7-2.5	4.25-8.75	3.0-4.5	0.75-3.0
K12	K12(25%)	32-33	19-21	2.6-2.5	4.20-8.70	3.1-4.0	0.77-2.9
K13	K13(30%)	28-32	15-18	2.0-1.9	5.1-10.5	3.5-5.5	0.9-3.6
K14	K14(30%)	28-30	14-17	1.8-1.9	5-2-11.0	3.6-6.0	1.0-3.5

Serpentinit minerali tarkibida 47% Mg mavjud. Mg o`simliklar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Mg fotosintez jadalligida muhim ahamiyatga ega. O`simliklar o`sishini tezlashtiradigan element N ni Co nitrojen fiksatsiyasi jarayonida o`simlik o`zlashtiradigan holatga keltiradi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari yuqoridagi jadvalda aks ettirilgan. Mgning ta`siri ko`rinib turibdiki K5-K10 tajribalari oralig`ida burglar soni ko`paygan, o`simlik bo`yid ava o`simlik biomassasida ijobiy o`zgarishlar yuzaga kelgan.

O`simliklar hayotida barcha mikro va makroelementlarni aniq miqdori belgilangan. Bu miqdor kamayib ketsa o`simlik fiziologiyasida salbiy o`zgarishlar yuzaga keladi, ortib ketsa toksiklik xususiyati namoyon qiladi. K10-K14 tajribalarda Cr,Co va Ni miqdori biroz oshib ketishi ma`lum bo`ldi va hosil sifatiga salbiy ta`sir ko`rsata boshlagan, o`simlik bo`yi o`sishi sekinlashdi, burglar

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

soni normal holatdan kamaydi, karam boshlari kichrayganligi aniqlandi. K5-K10 tajriba oralig`ida barcha mikro va makroelementlarni o`simlik quruq massasida normal miqdorda ekanligi ochiqlandi. **Xulosa.** Serpentinit mineralini o`simliklar uchun mineral o`git sifatida qo`llash va kelajakdagi ishlarda bu tadqiqotni yanada mukammallashtirish, serpentinit tarkibidagi mikro va makroelementlarni o`simlik uchun qulay o`zlashtiraoladigan shaklga keltirish va ta`minlash orqali o`simlik fiziologiyasida ijobiy o`zgarishlarni yuzaga keltirish va iqtisodiy tarafdan kamchiqim o`g`it ishlab chiqarishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Umirov F. E., Nomozova G. R., Shodikulov Zh. M. Solubility Diagram of the Sodium Hypochlorite–Sodium Chloride–Water System. Russian Journal of Inorganic Chemistry, 2022, Vol. 67, No. 4, pp. 502–507

2. Sabine Martin. (2009). Human Health Effects of Heavy Metals. Center for Hazardous Substance Research. Kansas State University Issue 15, March. 1-6.

3. Tuxtarov B.E., Abdumuminova R.N., Naimova Z.S., Xakimova X.X., Karimov A.A. (2022). Tuproqni og’ir metallar bilan ifloslanishini ekologo-gigienik jihatdan baholash va uni yaxshilash choralarini ishlab chiqish. Monografiya. SamDTU. Samarqand. 120 bet.

4. Каримов А.А., Абдумуминова. (2021). Санитарно-гельминтологическое состояние открытых водных бассейнов на территориях населения восточного Зирабулака. Р.Н. FUNDAMENTAL SCIENCE AND TECHNOLOGY. Сборник научных статей по материалам VII Международной научно-практической конференции. Уфа: Изд. НИЦ Вестник науки, 263-268 ст

5. Тагаев И. А. и др. Результаты анализов пластов фосфоритов на джеройсардаринском месторождении кфк //International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 4-14.

.